TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEBUTOVA ZULAYXO HAMIDOVNA

TOSHKENT VILOYATI FERMER XO‘JALIKLARIDA MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HUDUDLAR BO‘YICHA TAQSIMOTINI STATISTIK TADQIQI

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 330.43:631.11(575.111)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Bebutova Zulayxo Hamidovna
Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini statistik tadqiqi……..... 3

Бебутова Зулайхо Хамидовна
Статистическое исследование распределения продукции (услуг) по регионам в фермерских хозяйствах Ташкентской области..... 27

Bebutova Zulaykho Khamidovna
Statistical study of the distribution of products (services) by regions in the farms of Tashkent region..... 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEBUTOVA ZULAYXO HAMIDOVNA

TOSHKENT VILOYATI FERMER XO‘JALIKLARIDA MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HUDUDLAR BO‘YICHA TAQSIMOTINI STATISTIK TADQIQI

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4944 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tsue.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdug‘aniyev Otabek Allajonovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Dusnayev Sherzod Ergashevich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat agrar unversiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.I.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «____»_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-27; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____»_____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «_____»_____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosda fermer xo‘jaliklari global darajada o‘sishda davom etar ekan, xalqaro statistik ma’lumotlar fermer xo‘jaliklarida mahsulot(xizmat)lar bo‘yicha hududiy taqsimotning geografik sharoitlar, iqlim, infratuzilma, hududiy siyosat kabi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Jahon iqtisodiyotida bozor munosabatlari iqtisodiy erkinlik asosida mustahkamlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilsh jarayonida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ushbu tendetsiyani oshirishga asos bo‘lmoqda. Fermer xo‘jaliklari barqaror oziq-ovqat ta’minoti nuqtayi nazaridan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Butun jahon statistikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘pgina rivojlangan davlatlarda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Jumladan, 2025-yil qishloq xo‘jaligi va fermer xo‘jaliklari global darajada o‘sishda davom etmoqda.

Dunyodagi statistik ma’lumotlar 571 milliondan ortiq fermer xo‘jaliklarining mavjudligini tasdiqlaydi, ularning taqsimoti mintaqalar bo‘yicha sezilarli farqlarga ega. 2025-yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida fermer xo‘jaliklari yerning katta qismini (38.4%) boshqaradi. Bu fermalarning ko‘pchiligi kichik o‘lchamli bo‘lib, ularning mahsulot qiymati bo‘yicha taqsimoti mamlakatlar kesimida sezilarli farqlanadi”[1]. Eng yuqori ulush Hindiston, Xitoy va Afrika mintaqalariga (kichik fermerlar ko‘p) to‘g‘ri keladi. Katta fermalar va keng maydonlar asosan rivojlangan hududlarda (AQSh, Yevropa) joylashgan. Bu global statistik kontekst Toshkent viloyati uchun hududiy taqsimot tahlilida xalqaro tendensiyalar bilan qiyosiy tahlil imkonini beradi. Bugungi kunda fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligi statistik baholash yordamida o‘rganilishi - oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni barqaror ta’minlash va strategik rejalashtirishning asosiy manbaiga aylangan.

Yangi O‘zbekiston strategik rivojlanish yo‘nalishlarida sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ta’minlashda fermer xo‘jaliklarining roli tobora oshib borayapti. Fermerlarning yerlardan samarali foydalanishini rag‘batlantirish - agrar sektorning barqaror o‘sishiga olib keladigan omillardan biri sifatida tan olingan. Manfaatdorlik va eng muhim adolat tamoyillari mavjud bo‘lganda, iqtisodiy samaradorlik va o‘sish sur’ati sezilarli darajada oshadi. “2025-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 52 857,7 mlrd so‘mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 49909,2 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 2258,7 mlrd s o‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 689,8 mlrd so‘mni tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 9,8% ni tashkil etdi. 2025-yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida umumiy mahsulot hajmi o‘tgan yilga nisbatan 3–5 % ga o‘sdi”[2], meva-rezavor va sabzavot yetishtirish bo‘yicha ijobiy tendensiyalar

[1]ttps://genderi.org/reja-i-kirish-ii-shirkat-xojaliklari-va-ularning-tashkiliy-iqt.html?page=3. ma’lumotlari.
[2] Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2025 yil bo‘yicha statistik ma’lumotlari.

kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar statistik tahlil asosida dissertatsiya bo‘yicha empirik natijalarni yanada boyitadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini belgilovchi PF-158-sonli farmoni, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi “Rasmiy statistika to‘g‘risida” O‘RQ-707-sonli qonuni, 2020-yil 3-avgustdagi “Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4796-sonli qarori, Prezidentning 2018-yil 2-iyuldagi “Fermer xo‘jaliklarida hisob tizimini tubdan yaxshilash va ularga bank xizmatlarini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, shuningdek, 2004-yil 26-avgustdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” 662-II-sonli qonun va mazkur soha bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar doirasidagi belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fermer xo‘jaliklarida mahsulot(xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini statistik jihatdan o‘rganish masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro agrar iqtisodiyot doirasida ham dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasiga murojaat qilinsa, xususan Kanada, AQSH va Yevropa mamlakatlarida ushbu sohada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Germaniya, Italiya hamda Gollandiya davlatlarida hududiy omillar va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan zamonaviy statistik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ular asosida fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oshirish, xarajatlar tarkibini maqbullashtirish va hududlararo farqlarni aniqlash bo‘yicha tizimli natijalarga erishilgan.

Shu jihatdan, hududiy taqsimotni statistik tadqiq etish ilmiy-nazariy ahamiyat bilan birga amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu esa, fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada samarali tashkil etish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda yangi iqtisodiy yo‘nalishlarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, Jay L., Robert B., George Ye.P., William G. Hunter, J.Stuart Hunter., Farrer D.E., Glauber F.R. kabi ko‘plab xorijiy oolimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida muhim o‘rin egallagan[3]. Ular fermer xo‘jaliklarining faoliyatini statistik tadqiq qilish nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Fermer

[3] Devore, Jay L. Probability and Statistics for Engineering and the Sciences. 4th ed. Wadsworth Publishing, 1995.; McCall, Robert B. Fundamental Statistics for the Behavioral Sciences. 5th ed. New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1990; Box, George E.P., William G. Hunter, and J. Stuart Hunter. Statistics for Experimenters: An Introduction to Design, Data Analysis, and Model Building. New York: John Wiley and Sons, 1978. Farrer D.E., Glauber F.R. Multicollinearity in Regression Analisis Reviero of Economics and statistics. Vol. 49/ -1969

xo‘jaliklarining samaradorligini ekonometrik modellashtirish, statistik usullarda baholash va miqdoriy o‘rganish masalalari amaliy tadbiqlarda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ushbu muammoga MDH olimlaridan Chuev I.N., Chueva L.N, Aydinova F.T., Nazapenko A.V., Kupennaya V.V., Smipnova O.O., Yelagina A.S., Stpelsov A.E., Avepknev A.I., Abduvosiev F.S., Davlatov K.K. va boshqa iqtisodchi olimlar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida alohida e’tibor qaratganlar[4].

Respublikamiz fermer xo‘jaliklarida mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini statistik tadqiq qilishning nazariy jihatdan o‘rganishga olimlardan H.R.Husanov, S.S.G‘ulomov, B.B.Berkinov, R.X.Toshmatov, N.M.Maxmudov, T.F.Farmonov, B.Yu.Xodiyev, A.M.Abdullayev, T.Sh.Shodiyev, N.M. Soatov, X.D.Xo‘jaqulov, B.X.Mamatkulov, B.Q.Utanov, X.K.Kalimbetov, J.Ch.Murodov va boshqalar sezilarli hissa qo‘shdilar[5]. O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlanmalarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlarida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish orqali fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mahsulot yetishtirish bilan bog‘liq

[4] Чуев И.Н., Чуева Л.Н. Комплексный анализ хозяйственной деятелности. – М.: ИТК «Дашков и Ко », 2010. – 420 стр.; Ф.Т.Айдинова, А.В.Назаренко. // Анализ современного состояния и развития крестьянских (фермерских) хозяйств в сельском хозяйстве России. //УДК 33. DOI: 10.34670/AR.2021.62.41.026.2021.; Куренная В.В., Айдинова А.Т. К вопросу о роли крестьянских (фермерских) хозяйств в функционировании масличного подкомплекса региона: тенденции и перспективы // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2017. № 1. С. 53-57. Смирнова О.О., Елагина А.С. Устойчивость фермерского хозяйства в условиях глобализatsiи: обобщение международных исследований // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2020. Том 10. № 7В. С. 254-261. DOI: 10.34670/AR.2020.44.61.006.; Стрельцов А.Е. Факторы повышения эффективности государственной поддержки крестьянских (фермерских) хозяйств в Алтайском крае /А.Е.Стрельцов// Вестник АГАУ, 2012. -№0 1 (87), - С. 127-132.- 0,38 п.л.; Аверкнев А. И. Методические основы развития и использования технического потенциала сельскохозяйственного производства. // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. - 2000. - №1. - С.17-21.; Абдувосиев Ф.С. Агропромышленный комплекс Республики Таджикистана в системе внешнеэкономических отношений. //Экономика Таджикистана: стратегия развития. 2005г.,№3.-С. 124-131.; Давлатов К.К «Дехканские (фермерские) хозяйства: проблемы становления и перспективы развития», Душанбе, Ирфон, 2003г.- 128с.

[5] Ҳусанов Р.Ҳ. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. –Т.:Узбекистан, - 1994.-72 б, Гулямов С.С., Догил Л.Ф., Семенов Д. Предпринимателство и малый бизнес. – Т.: ТГЭУ, 1996; Беркинов Б.Б., Тошматов Р.Х. Ўзбекистонда фермер хўжаликлар ва уларга хизмат кўрсатувчи бозор инфратузилмаларини ривожлантириш истиқболи. –Т.: ТДИУ, 2008. – 147 б; Махмудов Н.М., Сычева Н.И. Фермер хўжаликлари фаолиятини моделлаштириш. Ўқув қўлланма. Т,:2005 й; Т.Ф. Фармонов. Фермер хўжаликларининг ривожлантириш истиқболлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 178 б; Ходиев Б.Ю., Ишназаров А. Эконометрика. – Т.: ТГЭУ, 2007. – 467 с.; Абдуллаев А.М., Шодиев Т., Хакимов Т. Иқтисодий-математик усуллар ва моделлар. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси нашриёти, 2005. – 271 б.; Шадиев Т.Ш. Экономические модели развития селского хозяйства. – Т.: Фан, 1986. –168 стр Soatov N.M. Statistika: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.:Ibn Sino, 2003. – 744 bet. Хўжақулов Х.Д. ва бошқ. Иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш шароитида таркибий ўзгаришларнинг самарали йўлларини статистик методлар асосида ишлаб чиқиш. Монография – Т.: Наврўз 2018. – 206 бет. Маматкулов Б.Х. Фермер хўжаликларининг иқтисодий қўллаб-қувватлаш механизмлари самарадорлигини статистик баҳолаш усулларини такомиллаштириш (ўзбекистон республикаси фермер хўжаликлари мисолида)// Автореферат. “Davr Matbuot savdo” – Тошкент – 2022 й. – 83 б. Utanov B.Q. // Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini ekonometrik modellashtirish mavzusidagi 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ Автореферат. “Davr Matbuot savdo” – Тошкент – 2019 й. – 26 б.; Калимбетов Х.К. Повышение эффективности деятельности фермерских хозяйств на основе дополнительных отраслей. Автореферат. – Ташкент., 2018.-27 стр. Murodov J.Ch. Fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholash (Toshkent viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**.** Toshkent:-2024 y. 28 bet.

xarajatlarni kamaytirishning eng maqbul usullarini aniqlash masalalari alohida amaliy ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham agrar soha, xususan qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yo‘nalishlarida resurslardan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish natijadorligini oshirish hamda xarajatlarni qisqartirishga doir masalalar keng qamrovda o‘rganib chiqilgan.

Mavjud tadqiqotlar va uslubiy ishlanmalar fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini statistik usullar orqali baholash masalasini yetarlicha o‘rganmagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligini statistik baholash tendensiyalari, yalpi yetishtirish hajmi, ularning olgan daromadlari, shuningdek samaradorlikni oshirishga ta’sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlashga asoslangan ilmiy tadqiqot - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi sifatida dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya ishining mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № FM-6 “O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlash” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi fermer xo‘jaliklarida mahsulot va xizmatlarning hududlar kesimida taqsimlanishini statistik yondashuvlar asosida tahlil etish, hududlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Mazkur dissertatsiya quyidagi ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan:

fermer xo‘jaliklarida mahsulot va xizmatlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishini statistik jihatdan baholash, ya’ni hududiy tafovutlarni aniqlash, ularning rivojlanish sur’atlarini o‘rganish hamda resurslardan samarali foydalanish darajasidan kelib chiqib, hududlar kesimida mahsulot va xizmatlar hajmini kompleks tahlil qilish;

O‘zbekiston ichki bozorida fermer xo‘jaliklari mahsulotlari va xizmatlarining o‘rnini o‘rganish – hududlar bo‘yicha yetishtirish va iste’mol hajmlarini solishtirish, ichki bozor talab va takliflarini statistik usullar yordamida aniqlash;

xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va unga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish – ilg‘or agrar amaliyotlar va hududiy taqsimot modellarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot va xizmatlarning hududlar bo‘yicha dinamik o‘zgarishlarini statistik tadqiq etish – hududiy o‘sish sur’atlari va pozitsion o‘zgarishlarni aniqlash;

hududiy taqsimotni ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi asosida baholash – hududlararo tafovutlarni o‘lchash va samaradorlik ko‘rsatkichlarini solishtirish;

hududlararo tafovutlarni panel ma’lumotlar asosida Between-effects modeli yordamida baholash – hududlararo samaradorlik farqlarini tahlil qilish va resurslarni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari mahsulotlarining hududiy dinamik rivojlanishini ARDL modeli yordamida prognozlash – hududiy o‘sish sur’atlari va kelajakdagi tendensiyalarni aniqlash.

Ushbu vazifalar orqali tadqiqot nafaqat hududiy taqsimot va samaradorlikni tizimli ravishda o‘rganish, balki Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy barqarorlik va yetishtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Mazkur tadqiqotning predmeti – fermer xo‘jaliklarida mahsulot va xizmatlarning hududlar bo‘yicha taqsimoti va uning hududiy tafovutlari, shuningdek, ushbu taqsimotning samaradorlik va yetishtirish jarayonlariga ta’sirini statistik tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqot ishida statistik kuzatish, mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, grafik, variyatsiya koeffitsiyenti, reyting baholash usullari, dinamik pozitsion o‘zgarishi barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) va harakatchanlik indeksi (M_i), ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi, Between-effects va ARDL modeli kabi ekonometrika usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqot ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha taqsimlanishidagi nomutanosiblikni kompleks baholash maqsadida variatsiya (V), tengsizlik (G), konsentratsiya (CR_k) hamda strukturaviy barqarorlik (D) ko‘rsatkichlarini geometrik integratsiya tamoyili asosida yagona baholash tizimiga birlashtiruvchi ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi $I_{MNI} = ((V * G * CR_k * (1 + D))^{\frac{1}{4}}$ ishlab chiqilgan hamda uni qo‘llashga asoslangan hisoblash uslubiyoti takomillashtirilgan.

Fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlarini baholashning nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) va harakatchanlik indeksi (M_i)ni integratsiyalashga asoslangan kompleks baholash modeli ishlab chiqilgan.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida yalpi ishlab chiqarish hajmiga ishlab chiqarish resurslarining ta’sirini baholashning iqtisodiy-matematik yondashuvi takomillashtirilib, “Between-effects” ekonometrik modeli asosida ishlab chiqarishning omilli elastiklik koeffitsiyentlari aniqlangan.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlashning iqtisodiy-matematik yondashuvi ARDL(1,1,1) modeli asosida ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi qisqa va uzoq muddatli omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik baholangan hamda 2030-yilgacha bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat**:**

hududiy tafovutlarni baholash va samaradorlikni aniqlash usulining amaliy ahamiyati fermer xo‘jaliklari mahsulot(xizmat)larining hududlar bo‘yicha notekisligini ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi (I_MNI) yordamida

hududlar kesimida samaradorlik tafovutlarini aniqlash va hududiy resurslarni optimallashtirish asoslab berilgan;

fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi hududiy farqlarni chuqur tahlil qilish asosida samaradorlik darajasi baholanib, resurslardan foydalanish holati aniqlangan holda hududiy imkoniyatlarni maqbullashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan;

hududiy pozitsion o‘zgarishlarni baholash va tasniflashda fermer xo‘jaliklari mahsulot(xizmat)larining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishi barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) va harakatchanlik indeksi (M_i) yordamida integratsiyalashgan uslubiy yondashuv asosida tahlil qilinib, ushbu tasnif hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, resurslarni samarali taqsimlash va barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirilgan;

fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi hududiy o‘zgarishlarni tizimli ravishda baholash imkoniyati yaratilgan holda, hududlarning rivojlanish darajasi va dinamikasi resurslarni oqilona taqsimlash hamda barqaror ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish asosida aniqlangan;

fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini ekonometrik baholashda Between-effects modeli asosida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi va asosiy resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinib, yailpi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar berilgan;

fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi asosiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik baholanib,. resurslardan foydalanish darajasi va ishlab chiqarish natijalari o‘rtasidagi munosabat aniqlashtirilib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda resurslarni maqbul taqsimlash bo‘yicha amaliy xulosalar ishlab chiqilgan;

ARDL (1,1,1) modeli yordamida hududiy yalpi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni optimal taqsimlash, fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish asosida indekslar va ekonometrik modellardan foydalangan holda Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari aniqlangan;

fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining istiqboldagi o‘zgarishlari baholanib, prognoz natijalari asosida hududiy samaradorlikni oshirish hisobga olingan holda ishlab chiqilgan yondashuv agrar siyosatni takomillashtirish hamda hududlararo tafovutlarni qisqartirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishidagi nazariy va amaliy statistik ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, prognoz ko‘rsatkichlarini ekonometrik usullar vositasida ilmiy asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalardan Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarining 2010-2025-yil statistik hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va tegishli vazirliklar tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma’lumotlar bazasiga asoslangan. Bu ma’lumotlar hududiy tafovutlar, mahsulot hajmi, ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchi bo‘yicha aniq va ishonchli raqamlarni beradi. Fermer xo‘jaliklaridagi hududiy taqsimotning

notekisligi va pozitsion o‘zgarishlarini baholashda ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi (I_MNI) va integratsiyalashgan B_i va M_i indikatorlari ishlatilgan. Ushbu indekslar va koeffitsiyentlar geometrik integratsiya va uslubiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hududiy tafovutlarni kompleks va aniqlik bilan o‘lchash imkonini beradi. Yalpi ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda “Between-effects” modeli va ARDL(1,1,1) modeli qo‘llangan bo‘lib, ular hududlararo o‘zaro bog‘liqlik, vaqt bo‘yicha dinamik o‘zgarishlar va resurslarning ishlab chiqarishga ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Modellarning statistik ahamiyati va barqarorligi tekshirilgan bo‘lib, prognoz natijalari o‘rta muddatli rejalashtirish va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonchli manba hisoblanadi. Olingan natijalar nafaqat Toshkent viloyati kontekstida, balki ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilgan. Bu tadqiqot natijalarini milliy va xalqaro standartlar bilan moslashtirish imkonini beradi, natijalarni amaliy va ilmiy asosda qo‘llash ishonchliligini oshiradi. Tadqiqotda qo‘llangan statistik va ekonometrik usullar boshqalar tomonidan ham takrorlanishi mumkin. Ko‘p komponentli indekslar va ARDL/VAR modellari yordamida hisoblangan ko‘rsatkichlar, shuningdek hududiy tafovutlarni tahlil qilish natijalari takrorlanadigan va tekshiriladigan metodologiyaga ega. Shu jihatlar tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ishonchliligini ta’minlaydi hamda hududiy rivojlanish, fermer xo‘jaliklarining samaradorligini oshirish va agrar siyosatni shakllantirishda ishonchli asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan g‘oya va uslubiy ishlanmalar fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligini oshirish jarayonida hududlar bo‘yicha mahsulot(xizmat)larni statistik tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot natijalari asosida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlarini hududiy va kompleks yondashuv bilan tahlil qilish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini prognozlash sifatli va tizimli tarzda amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Ilmiy tadqiqot ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, aniqlangan taklif va tavsiyalar yordamida fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligini yuqori darajada statistik baholash mumkinligi, olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari kengashi tomonidan hududiy ishlab chiqarish hajmini prognozlash va tegishli dasturlar ishlab chiqishda qo‘llanish, taklif qilingan takomillashtirilgan usullar statistika idoralari va hududiy iqtisodiy tahlil xizmatlarida turli darajada qo‘llanish imkonini yaratadi, Oliy ta’lim muassasalarida, xususan, bakalavriat darajasida “Fermer xo‘jaliklarida mahsulot(xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini statistik tadqiq etish” yo‘nalishida o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarda uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanish hamda taklif qilingan. Takomillashtirilgan usullari statistika idoralarining turli darajada qo‘llanilishi, oliy ta’lim muassasalari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Qishloq xo‘jaligi statistikasi”, “Statistika”, “Iqtisodiy statistika”, “Ekonometrika”, magistratura mutaxassisligining “Amaliy ekonometrika”, “Ekonometrik metodlari” kabi fanlari o‘quv dasturi, o‘quv

qo‘llanmalar, darsliklarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Mazkur tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish, hududlararo tafovutlarni aniqlash va iqtisodiy prognozlarni sifatli amalga oshirishda amaliy joriy etilgan:

Fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha taqsimlanishidagi nomutanosiblikni kompleks baholash maqsadida variatsiya (V), tengsizlik (G), konsentratsiya (CR_k) hamda strukturaviy barqarorlik (D) ko‘rsatkichlarini geometrik integratsiya tamoyili asosida yagona baholash tizimiga birlashtiruvchi ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi $I_{MNI} = ((V * G * CR_k * (1 + D))^{\frac{1}{4}}$ ishlab chiqilgan hamda uni qo‘llashga asoslangan hisoblash uslubiyoti takomillashtirilgan va amaliyotga tadbiq etildi. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 8-maydagi № 05/06-04-476 – sonli, O‘zbekiston fermerlari kengashining 2026-yil 4-martdagi № 01/23-0061 – sonli ma’lumotnomalari). Mazkur yondashuv hududlar kesimida mahsulot (xizmat)lar taqsimotidagi nomutanosiblik darajasini kompleks baholash, uning tarkibiy omillarini bir vaqtning o‘zida hisobga olish va hududlararo farqlarni aniqlash imkonini beradi;

Fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlarini baholashning nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) va harakatchanlik indeksi (M_i)ni integratsiyalashga asoslangan kompleks baholash modelidan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari kengashi fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish va yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalangan. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 8-maydagi № 05/06-04-476–sonli, O‘zbekiston fermerlari kengashining 2026-yil 4-martdagi № 01/23-0061–sonli, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2026-yil 4-martdagi № 01/1-01-14-157–sonli ma’lumotnomalari). Taklif etilgan metodika asosida hududlarning pozitsion barqarorlik darajasini yuqori barqaror ($B_i \geq 0,75$; $M_i \leq 0,25$), nisbatan barqaror ($B_i = 0,50$; $M_i = 0,50$), past barqaror ($B_i \leq 0,25$; $M_i \geq 0,75$) va eng yuqori pozitsion o‘zgaruvchan ($B_i = 0,00$; $M_i = 1,00$) toifalarga ajratish mezonlari asoslangan hamda bu hududlarning raqobat pozitsiyasidagi o‘zgarishlarini baholash aniqligini oshirish, rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish va hududiy agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini berishi isbotlangan.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida yalpi ishlab chiqarish hajmiga ishlab chiqarish resurslarining ta’sirini baholashning iqtisodiy-matematik yondashuvi takomillashtirilib, “Between-effects” ekonometrik modeli asosida ishlab chiqarishning omilli elastiklik koeffitsiyentlari aniqlangan. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 8-maydagi № 05/06-04-476–sonli, O‘zbekiston fermerlari kengashining 2026-yil 4-martdagi № 01/23-0061–sonli, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2026-yil 4-martdagi № 01/1-

01-14-157–sonli ma’lumotnomalari). Hisoblash natijalariga ko‘ra, barcha ekinlar yer maydoni 1 foizga oshganda yalpi ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 0,314 foizga, band bo‘lganlar soni 1 foizga ko‘payganda 0,511 foizga, sarflangan mineral o‘g‘itlar hajmi 1 foizga ortganda 0,114 foizga hamda etalonli traktorlar soni 1 foizga ko‘payganda 0,014 foizga o‘sishi kompleks baholangan. Bu esa fermer xo‘jaliklarida mehnat resurslarining ishlab chiqarish hajmiga ta’siri eng yuqori omil ekanligini ilmiy asoslash imkonini bergan;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlashning iqtisodiy-matematik yondashuvi ARDL(1,1,1) modeli asosida ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi qisqa va uzoq muddatli omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik baholangan hamda 2030-yilgacha bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 8-maydagi № 05/06-04-476–sonli, O‘zbekiston fermerlari kengashining 2026-yil 4-martdagi № 01/23-0061–sonli ma’lumotnomalari). Bu esa hududlardagi fermer xo‘jaliklarining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda baholash va strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy taklif va tavsiyalari ma’ruzalar shaklida 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalari bo‘yicha chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta respublikamiz va 1 ta xorijiy jurnallarda, 5 ta tezis, shundan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklarda mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimoti - statistik tadqiq obyekti sifatida”** deb nomlanuvchi birinchi bobida fermer xo‘jaliklarda mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini statistik baholash, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik baholash, hamda fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larini yetishtirishda ilg‘or xorijiy

mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni statistik tadqiq etish ning asosiy yo‘nalishlari statistik tadqiq etilgan.

Butun dunyo bo‘yicha fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligini baholash va uni yuksaltirish uchun statistik va iqtisodiy modellardan foydalanish bo‘yicha izlanishlar jadallashgan. Ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

samaradorlikni statistik usullar orqali aniqlash mexanizmlari;

ishlab chiqarishning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini baholash va prognozlash;

iqtisodiy ta’sirlar asosida samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

demografik omillar va ijtimoiy jarayonlar bilan fermer xo‘jaliklari samaradorligi bog‘liqligini o‘rganish.

Bu yo‘nalishlar zamonaviy ilmiy izlanishlar bilan uyg‘un ravishda olib borilmoqda va ularning natijalari agrar iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Toshkent viloyatida fermer xo‘jaliklarida band bo‘lganlar soni 2016-yilda 44180 kishini, 2025-yilda 120400 kishini tashkil etgan. 2025-yilda 2016-yilga nisbatan 76220 kishiga yoki 2,7 martaga oshgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish ta’minlanayotgan yillarda Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilganimizda, 2016-yilda fermer xo‘jaliklariga biriktirilgan umumiy yer maydoni 471713 gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda esa 307000 gektarni tashkil qildi. 2025-yilda 2016-yilga nisbatan 164713 gektarga kamaygan. (1-jadval).

1-jadval

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari[6]

Ko‘rsatkichlar	Yillar										2025 yil 2016 yilga nisbatan	
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	(+;-)	%
Fermer xo‘jaliklari soni, dona	13987	15221	15380	7629	8463	8083	6578	6528	6597	6 583	-7 404	47,1
Fermer xo‘jaliklarida band bo‘lganlar soni, kishi	44180	46772	42931,9	33201,3	94790	36430	65024	29308	118600	120400	76220	272,5
1 fermer xo‘jaligiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	33,7	20,2	24,8	43,4	36,0	35,7	42,9	45,7	46.2	46,6	12,9	138,3
Fermer xo‘jaliklariga biriktirilgan umumiy yer maydoni, gektar	471713	308045	382101	312 000	310 500	309200	308000	306 500	305 000	307000	-164713	65,1

Bunga sabab sifatida: yerlarni optimallashtirish, ayrim fermer xo‘jaliklarini yiriklashtirish yoki birlashtirish, klaster tizimining kengayishi ko‘rsatiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda esa fermalar kamroq bo‘lsa ham, mahsulot miqdori va xizmatlar qiymati yuqori bo‘lishi kuzatiladi.

[6] Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2016-2023 yillar bo‘yicha statistik to‘plamlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2025-yilda fermer xo‘jaliklarida mahsulotlar va xizmatlar hududlar bo‘yicha taqsimoti naqadar murakkab va ko‘p omilli ekanligi ko‘rinadi. Xalqaro statistik ma’lumotlar fermalar soni, mahsulot turi, regional iqlim sharoitlari hamda iqtisodiy infratuzilma kabi omillar asosida farqlanishini ko‘rsatadi. Fermer xo‘jaliklarining hududiy taqsimoti tahlili Toshkent viloyati statistik tadqiqi uchun xalqaro misollar bilan chuqurlashtirilishi mumkin

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklarda mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini ekonometrik modellashtrish”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlarining statistik tadqiqi, fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larning samaradorligini statistik tahlili hamda ularda mahsulot (xizmat)larining hududlar bo‘yicha taqsimotini ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi asosida baholangan.

Tadqiqotning dastlabki empirik bosqichida Toshkent viloyati tumanlari kesimida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi chuqur tahlil qilinadi (2-jadval). Ushbu jadval asosida mutlaq va nisbiy o‘sish sur’atlari, tarkibiy ulushlar hamda hududlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanib, keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan pozitsion va reyting tahlillari uchun zarur bo‘lgan empirik bazasi shakllantirildi. Bunda hududiy ulushlar $p_{i,t}$, ularning mutloq $\Delta p_{i,t}$ va nisbiy $K_{i,t}$ o‘zgarishlari asosiy indikatorlar sifatida hisobga olindi.

2-jadval

Toshkent viloyati tumanlar kesimida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining dinamikasi (mln so‘m) [7]

Tumanlar	2021	2022	2023	2024	2025
Oqqo‘rg‘on	277499,50	402911,90	456528,30	481742,60	507931,80
Ohangaron	186348,50	265553,60	277542,30	291864,70	305978,90
Bekobod	330166,20	457803,50	473738,80	495682,40	517946,90
Bo‘stonliq	83917,00	247792,90	298664,10	314538,70	331926,40
Bo‘ka	461765,00	707581,30	542873,50	564912,80	587364,20
Quyi chirchiq	34717,20	45273,60	41890,70	43284,90	44763,50
Zangiota	219136,60	350475,80	442591,40	469318,60	497842,90
Yuqori chirchiq	399626,90	507466,70	501201,10	524793,50	547864,20
Qibray	108303,60	147873,60	142029,60	147684,20	153971,80
Parkent	772892,10	656995,00	586846,70	609734,80	634892,60
Piskent	372208,10	556475,20	639823,20	668491,70	698264,90
O‘rta chirchiq	420146,00	579110,80	681411,30	709284,60	739862,10
Chinoz	343366,10	363106,60	317143,30	329864,50	344927,80
Yangiyo‘l	271110,40	349630,60	518627,40	544218,90	571493,60
Toshkent tumani	388349,00	438708,70	560729,50	589476,30	619284,70
Nurafshon sh.	2008,4	9346,4	1215,20	1287,60	1362,90
Olmaliq sh.	0	9667,6	10253,40	10782,90	11318,60
Angrensh.	1103,9	387,5	2315,30	2438,70	2566,40

Pozitsiya barqarorligi koeffitsiyenti (B_i). Hududning reytingdagi o‘rnini saqlab qolish darajasini aniqlash uchun pozitsiya barqarorligi koeffitsiyenti qo‘llaniladi:

[7] Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida shakillantirildi

$$B_i = 1 - \frac{\sum|\Delta Rank_{i,t}|}{T-1} \qquad (1)$$

Bu yerda:

$\Delta Rank_{i,t}$ – hududning t yildagi reyting o‘zgarishi, T — kuzatilgan yillar soni, B_i— hududning pozitsiya barqarorligi darajasi.

Mazkur koeffitsiyent 0 va 1 oralig‘ida qiymat qabul qiladi:

$B_i \to 1$ bo‘lsa, hudud o‘z reyting pozitsiyasini yuqori darajada saqlab qolgan;

$B_i \to 0$ bo‘lsa, hudud reytingda tez-tez siljigan va pozitsion barqarorlik past.

Ushbu ko‘rsatkich strukturaviy siljish indeksini to‘ldiruvchi metodologik vosita hisoblanadi. Agar S_t umumiy tizim harakatchanligini baholasa, B_i har bir hududning individual barqarorligini aniqlaydi. Shu sababli, hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham tizimli ham individual barqarorlikni birgalikda tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan zarur hisoblanadi.

Hududlar reytingidagi siljishlar faqat yakuniy natija bilan emas, balki vaqt davomida qanday intensivlikda sodir bo‘lganini ham baholashni talab qiladi. Aynan shu maqsadda **pozitsion harakatchanlik indeksi (M_i)** qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkich hududning tahlil davri mobaynida reyting bo‘yicha qanchalik faol harakatlanganini, ya’ni o‘rin almashuv chastotasi va miqyosini o‘rtacha qiymatda ifodalaydi.

Agar barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) pozitsiyaning saqlanish darajasini aks ettirsa, M_i esa aksincha — hududning reyting tizimidagi dinamikligini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur indeks hududiy raqobat intensivligi va nisbiy ustunlik almashinuvini baholashda muhim analitik vosita hisoblanadi.

$$M_i = \frac{1}{T-1}\sum_{t=2}^{T}\left|\Delta Rank_{i,t}\right| \qquad (2)$$

bu yerda:

M_i – i-hududning pozitsion harakatchanlik indeksi, T - kuzatilgan yillar soni,

$\left|\Delta Rank_{i,t}\right|$ –i-hududning t-yildagi reyting o‘zgarishining mutlaq qiymati;

T−1 — o‘zgarishlar soni (interval davrlar).

Hududiy rivojlanishni baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki o‘sish sur’atlari yetarli emas, balki hududlarning vaqt davomida egallagan nisbiy mavqei, reytingdagi siljishlar va strukturaviy o‘zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, pozitsiya barqarorligi koeffitsiyenti (B_i) va pozitsion harakatchanlik indeksi (M_i) birgalikda qo‘llanilib, hududiy iqtisodiy dinamikani aniqlash imkonini beradi: B_i - pozitsiyaning barqarorligini, M_i - siljish intensivligini ifodalaydi. Ushbu yondashuv asosida Toshkent viloyati tumanlari barqarorlik va transformatsion faollik mezonlari bo‘yicha guruhlarga ajratildi (3-jadval).

Integrallashgan tahlil natijalari Toshkent viloyatida 2021–2025-yillarda fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududiy rivojlanishi bir xil va chiziqli emas, balki barqarorlik hamda dinamiklik darajasi bo‘yicha differensiallashganini ko‘rsatadi. Yuqori barqaror hududlar ishlab chiqarish salohiyati va boshqaruv mexanizmlari muvozanatli shakllangan holda nisbiy mavqeini saqlab qolgan bo‘lsa, nisbatan barqaror (moslashuvchan) hududlar ichki transformatsiyaga moslashib, raqobat sharoitida o‘z pozitsiyasini saqlagan yoki bosqichma-bosqich rivojlangan hududlar sifatida namoyon bo‘ladi.

3-jadval

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining 2021–2025-yillardagi hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlari asosida integrallashgan guruhlanishi[8]

Guruh	Guruh tavsifi	Mezon (B_i va M_i)	Hududlar	Ilmiy tavsif
I-guruh	Yuqori barqaror hududlar	$B_i \geq 0.75$ $M_i \leq 0.25$	Quyi Chirchiq, Qibray, Zangiota, O‘rta Chirchiq	Mazkur hududlarda reyting pozitsiyasi 2021–2025 yillar davomida deyarli o‘zgarmagan. B_i koeffitsiyentining yuqoriligi va M_i ning pastligi ishlab chiqarish tizimining barqarorligini, fermer xo‘jaliklari faoliyatining muvozanatli rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu hududlar viloyat miqyosida tayanch hududlar sifatida namoyon bo‘ladi.
II-guruh	Nisbatan barqaror hududlar	$B_i = 0.50$ $M_i = 0.50$	Parkent, Chinoz, Toshkent tumani, Nurafshon sh., Olmaliq sh., Angren sh.	Ushbu hududlarda reyting pozitsiyasida o‘rtacha darajadagi siljishlar kuzatilgan. B_i va M_i ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati hududlarning ichki moslashuvchanligini bildiradi. Bu guruh iqtisodiy transformatsiya bosqichidagi hududlar sifatida tavsiflanadi.
III-guruh	Past barqaror hududlar	$B_i \leq 0.25$ $M_i \geq 0.75$	Yuqori Chirchiq, Piskent	Mazkur hududlarda reyting o‘zgarishlari sezilarli bo‘lgan. Past B_i va yuqori M_i ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish natijalari va hududiy raqobat pozitsiyasining beqarorligini ko‘rsatadi. Bu hududlarda strukturaviy tebranishlar va resurslardan foydalanish samaradorligining notekisligi kuzatiladi.
IV-guruh	Eng yuqori pozitsion o‘zgaruvchan hudud	$B_i = 0.00$ $M_i = 1.00$	Yangiyo‘l	Yangiyo‘l tumani eng yuqori darajadagi pozitsion harakatchanlikni namoyon etgan. Reyting tizimidagi keskin o‘zgarishlar fermer xo‘jaliklari faoliyatining notekis dinamikasini va hududiy ustunlikning almashuvchanligini bildiradi. Bu hududni yuqori riskli va yuqori transformatsion zona sifatida baholash mumkin.


Toshkent viloyati tumanlari kesimida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi dinamikasi 1-rasmda keltirilgan bo‘lib, keyingi hisob-kitoblar va integral baholash aynan shu ma’lumotlarga asoslanadi. Ushbu metodologiya hududiy ulushlar, variatsiya, konsentratsiya va tarkibiy barqarorlik ko‘rsatkichlariga tayangan holda ishlab chiqarish taqsimotining miqyosi, tarqoqligi hamda tarkibiy o‘zgarishlarini kompleks baholaydi hamda hududlar bo‘yicha mahsulot (xizmat)lar taqsimotidagi notekislik darajasi, uning intensivligi va barqarorligini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi bosqichda variatsiya koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$V = \frac{\delta}{\bar{x}} \times 100\% = \frac{216300}{393253,5} \times 100\% = 55\% \qquad (3)$$

Variatsiya koeffitsiyentining 55,0 foizni tashkil etishi hududlar bo‘yicha mahsulot (xizmat)lar taqsimotida **yuqori darajadagi notekislik** mavjudligini anglatadi. Statistik adabiyotlarda variatsiya koeffitsiyentining 33 foizdan yuqori bo‘lishi kuchli tarqoqlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, olingan natijalar Toshkent viloyatida fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish salohiyati ayrim hududlarda jamlanganini hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

[8] Muallif tomonidan hisob-kitob qilsih natijasida shakillantirildi



1-rasm. 2025-yilda Toshkent viloyati tumanlar kesimida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi[9], mln so‘mda

Konsentratsiya ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish hajmining yetakchi hududlarda jamlanish darajasini o‘lchaydi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy ustunlikni aniqlash imkonini beradi. Mazkur bosqichda CR_5 koeffitsiyenti hamda Gini koeffitsiyenti hisoblab chiqiladi.

Konsentratsiya koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$CR_k = \sum_{i=1}^{k} p_i \qquad (4)$$

bu yerda, p_i – hududning jami ishlab chiqarishdagi ulushi, k – yetakchi hududlar soni.

Mazkur tadqiqotda k=5 qabul qilindi.

$$CR_5 = 10,45 + 9,87 + 8,97 + 8,75 + 8,30 = 46,34\% \qquad (4.1)$$

2025-yil natijalariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha yalpi ishlab chiqarish hajmining 46,34 foizi atigi beshta yetakchi hudud hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat ishlab chiqarish salohiyatining muayyan hududlarda jamlanganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan past bo‘lgani sababli ishlab chiqarish to‘liq monopol jamlanish holatiga ega emas, ammo sezilarli konsentratsiya mavjudligini anglatadi.

Hududiy tengsizlik darajasini aniqlash uchun Gini koeffitsiyenti hisoblanadi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$G = 1 - \sum(p_i + p_{i-1})q_i \qquad (5)$$

bu yerda, p_i – kumulyativ hududiy ulush, q_i – hududlar ulushi (1/n), n – hududlar soni.

Gini koeffitsiyenti natijasi:

$$G = 1 - \sum(p_i + p_{i-1})q_i = 1\text{-}0,584 = 0,416 \approx 0,42 \qquad (5.1)$$

[9] Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida shakillantirildi

2025-yil ma’lumotlari asosida hisoblangan Gini koeffitsiyenti 0,42 ni tashkil etdi. Ushbu natija hududlar bo‘yicha fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining teng taqsimlanmaganini ko‘rsatadi. Gini koeffitsiyenti 0 va 1 oralig‘ida o‘zgaradi: 0 – mutlaq tenglikni, 1 esa mutlaq tengsizlikni bildiradi. Olingan 0,42 qiymat hududlar o‘rtasida ishlab chiqarish salohiyatining sezilarli darajada nomutanosib shakllanganini anglatadi.

Hududiy notekislikni baholashda faqat bir davr kesimidagi tafovutlarni aniqlash yetarli emas, balki hududiy tarkibning vaqt davomida qanday o‘zgarayotganini ham hisobga olish zarur. Chunki notekislik yuqori bo‘lsa-da, tarkib barqaror bo‘lishi yoki aksincha, tez o‘zgarib hududiy iqtisodiy siljishlarni aks ettirishi mumkin. Shu bois, integral baholash tizimida **strukturaviy farq koeffitsiyenti** muhim qo‘shimcha indikator sifatida qo‘llaniladi.

$$D = \frac{1}{2}\sum|p_{i,t} - p_{i,t-1}| \qquad (6)$$

bu yerda, $p_{i,t}$ – *i*-hududning joriy yildagi ulushi, $p_{i,t-1}$ – *i*-hududning oldingi yildagi ulushi, D - hududiy tarkibdagi o‘zgarish darajasi.

Koeffitsiyent 0 dan 1 gacha o‘zgaradi:

0 → to‘liq barqaror tarkib

1 → to‘liq tarkibiy almashuv

$$D = \frac{1}{2}\sum|p_{i,t} - p_{i,t-1}| = \frac{1}{2} \times 0,00446 = 0,00223 \qquad (6.1)$$

2024–2025-yillar kesimida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha hisoblangan strukturaviy farq koeffitsiyenti (D=0,00223) hududlar bo‘yicha fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi tarkibining yuqori darajada barqaror shakllanganini ko‘rsatdi. Bu natija hududiy notekislik mavjud bo‘lishiga qaramay, ishlab chiqarish tuzilmasida keskin siljishlar yuz bermayotganini statistik jihatdan tasdiqlaydi.

Hududiy notekislikni baholashda variatsiya, Gini, konsentratsiya va strukturaviy farq koeffitsiyentlari qo‘llaniladi, biroq ularning har biri tafovutning alohida jihatini (tarqoqlik, tengsizlik, jamlanish va dinamik siljish) aks ettiradi va kompleks holatni to‘liq ifodalay olmaydi. Shu sababli tadqiqotda ushbu indikatorlarni yagona tizimga birlashtiruvchi, sub’ektiv og‘irlik koeffitsiyentlarisiz shakllantirilgan integrallashgan ko‘rsatkich ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan indeksning asosiy metodologik tamoyili – geometrik integratsiyadir. Geometrik birlashtirishning ustunligi shundaki, u bir komponentning keskin past qiymatini boshqasi bilan kompensatsiya qilish imkonini cheklaydi va hududiy nomutanosiblikning real darajasini yanada aniqroq ifodalaydi.

Taklif etilayotgan ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi (MNI) formulasi:

$$\boldsymbol{I_{MNI}} = ((\mathrm{V} * \mathrm{G} * \mathrm{CR}_k * (1 + \mathrm{D}))^{\frac{1}{4}} \qquad (7)$$

Bu yerda:

V – normallashgan variatsiya koeffitsiyenti;

G – Gini koeffitsiyenti;

CR_k – konsentratsiya koeffitsiyenti;

D – strukturaviy farq koeffitsiyenti;

$\frac{1}{4}$ – to‘rtta komponentning geometrik o‘rtachasi;

(1 + D) qo‘llanilishi strukturaviy siljishni indeksga multiplikativ ta’sir qiluvchi omil sifatida kiritish imkonini beradi.

Endi ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi (I_{MNI}) ni aniq formulaga qo‘yib, bosqichma-bosqich hisoblaymiz.

$$I_{MNI} = \left(0,55 \times 0,42 \times 0,4634 \times \left(1 + 0,00223\right)\right)^{\frac{1}{4}} \qquad (7.1)$$

2025-yil yakunlariga ko‘ra, Toshkent viloyatida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarishining hududlar kesimidagi komponentli multiplikativ notekislik indeksi 0,57 ni tashkil etdi. Bu natija ishlab chiqarishning tumanlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganini, ya’ni o‘rtacha-yuqori darajadagi hududiy nomutanosiblik mavjudligini hamda ishlab chiqarish salohiyati ayrim hududlarda jamlanganini ko‘rsatadi.

Geometrik integratsiya tamoyiliga asoslangan I_{MNI} ko‘rsatkichi 0–1 oralig‘ida o‘zgarib, variatsiya, tengsizlik, konsentratsiya va strukturaviy siljish koeffitsiyentlarining uyg‘unlashgan darajasini ifodalaydi. Geometrik o‘rtacha xususiyatiga ko‘ra, komponentlar muvozanatlashganda indeks markaziy nuqtaga - 0,5 atrofidagi qiymatga intiladi va ushbu daraja nazariy muvozanat mezoni sifatida talqin etiladi. Mazkur nuqtadan og‘ish esa hududiy notekislik intensivligini aks ettiradi: 0,30 gacha bo‘lgan qiymatlar past tafovut va barqaror taqsimotni, 0,30–0,50 oralig‘i mavjud, ammo tizimli kuchaymagan tafovutlarni, 0,50–0,70 segmenti ishlab chiqarishning yetakchi hududlarda jamlanib borayotganini hamda notekislikning kuchaygan bosqichini, 0,70 dan yuqori qiymatlar esa yuqori darajadagi hududiy nomutanosiblik va ishlab chiqarish salohiyatining tor hududlarda konsentratsiyalashganini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hududiy notekislikni alohida statistik ko‘rsatkichlar orqali baholash uning murakkab va ko‘p qirrali tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli variatsiya, tengsizlik, konsentratsiya va strukturaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini geometrik integratsiya asosida birlashtiruvchi ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi ($\boldsymbol{I_{MNI}}$) ishlab chiqildi. Mazkur indeks hududiy tafovutlarning statik va dinamik jihatlarini yagona ko‘rsatkich orqali baholash imkonini beradi hamda sub’ektiv og‘irlik koeffitsiyentlarisiz kompleks tahlilni ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning “**Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (xizmat)larning hududlar bo‘yicha taqsimotini ekonometrik prognozlashtirish”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlararo tafovutini panel ma’lumotlarning “Between-effects” modeli asosida baholash amalga oshirilib, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimidagi dinamik rivojlanishini ARDL modeli asosida baholash va prognozlash uslubiyati takomillashtirishtirilgan.

4-jadval

Fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmiga yer, mehnat, agrotexnik va texnik resurslarning ta’sirini baholovchi “Between-effects” panel modeli[10]

ln_FerYalpiIch	Koef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	sig
ln_ekinYerMayd	.314	.044	7.136	.044	0.228	0.400	**
ln_band bo‘gan	.511	.041	12.463	.041	0.431	0.591	**
ln_Meneral o‘g‘it	.114	.028	4.071	.028	0.059	0.169	**
ln_Traktor soni	.014	.031	3.677	.031	0.053	0.175	**
Constant	7.008	.009	778.667	.009	6.990	7.026	**

Mean dependent var	12.636	SD dependent var	0.719
R-squared	0.804	Number of obs	105
F-test	3.811	Prob > F	0.039
Akaike crit. (AIC)	25.967	Bayesian crit. (BIC)	39.237

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1*

4-jadval natijalariga ko‘ra, Between regressiya natijalari modelning umumiy jihatdan statistik ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi (F = 3.811; Prob > F = 0.039 < 0.05). Demak, tanlangan omillar tumanlar kesimida fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada tushuntirib bermoqda. Modelning aniqlik darajasi yuqori bo‘lib, R^2 = 0.804, ya’ni ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning 80,4 foizi modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi Barcha ekinlar yer maydoni koeffitsiyenti 0.314 ga teng bo‘lib, yer resurslari 1% ga oshganda yalpi ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 0.314% ga oshishini bildiradi. Band bo‘lganlar soni 0,511 eng yuqori elastiklikka ega bo‘lib, mehnat resurslari ishlab chiqarish o‘sishida hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Sarflangan mineral o‘g‘itlar hajmi (0.114) ijobiy va statistik ahamiyatli bo‘lib, agrotexnik tadbirlar hosildorlikni oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Etalonli traktorlar soni (0.014) ijobiy, biroq nisbatan past elastiklikka ega, bu texnik ta’minotning ta’siri mavjud bo‘lsa-da, boshqa omillarga qaraganda cheklanganroq ekanini anglatadi.

Konstanta 7.008 ga teng va yuqori darajada ahamiyatli (p < 0.01), bu modelga kiritilmagan, biroq ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi boshqa omillar mavjudligini bildiradi.

Fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Between-effects modeli quyidagidan iborat:

$$ln(Y_i) = 7.008 + 0.314ln(X_{1i}) + 0.511ln9(X_{2i}) + 0.114ln(X_{3i}) + 0.014ln(X_{4i}) + u_i$$

(8.1[11])

Bu yerda: Y_{it} – fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi,

X_1 – barcha ekinlar yer maydoni,

X_2 – band bo‘lganlar soni,

X_3 – sarflangan mineral o‘g‘itlar hajmi,

X_4 – etalonli traktorlar soni,

u_i – tumanlar kesimida ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi, modelda hisobga olinmagan individual omillar.

Between model natijasiga ko‘ra:

$$\delta_u = 0.5046$$

[10] Stata dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

[11] Stata dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

ya’ni guruhlar (tumanlar) o‘rtasidagi tushuntirilmagan tafovutlarning standart og‘ishi 0.5046 ni tashkil etadi.

Natijalar fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish hajmi asosan mehnat va yer resurslari bilan belgilanayotganini, agrotexnik tadbirlar qo‘shimcha ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini va texnik jihozlanishning ta’siri nisbatan pastroq ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, model iqtisodiy mazmun va statistik mezonlar bo‘yicha asosli hisoblanadi.

“Between-effects” modeli asosiy statistik mezonlar (R^2, F-testi), multikollinearlik (VIF), birlik ildiz testlari va korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra ijobiy baholangan bo‘lsa-da, ekonometrik modelning ishonchliligi va parametrlar barqarorligini to‘liq ta’minlash uchun qo‘shimcha diagnostik tekshiruvlar o‘tkazish zarur hisoblanadi. Chunki yuqori aniqlik darajasi modelning barcha klassik regressiya shartlariga to‘liq javob berishini avtomatik tarzda kafolatlamaydi. Shu sababli model qoldiqlarining xususiyatlari, funksional shaklining to‘g‘riligi hamda individual kuzatuvlarning ta’sir darajasini aniqlash maqsadida bir qator maxsus testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir (5-jadvalga qarang).

5-jadval

“Between-effects” modeli baholash testlari[12]

Test nomi	Qiymatlar	Ehtimollik (p-value)	Tahlil xulosasi
Breusch–Pagan heteroskedastiklik testi	$\chi^2 = 1.87$	0.171	Geteroskedastiklik aniqlanmadi (H_0 qabul qilinadi)
White heteroskedastiklik testi	$\chi^2 = 2.94$	0.230	Dispersiya barqaror (H_0 qabul qilinadi)
Ramsey RESET testi	F = 1.42	0.258	Model funksional shakli to‘g‘ri tanlangan
Jarque–Bera normality testi	JB = 1.76	0.414	Qoldiqlar normal taqsimlangan
Shapiro–Wilk normality testi	W = 0.973	0.327	Normal taqsimot rad etilmadi
Cook’s Distance testi	max D = 0.21	-	Ta’sirchan ekstremal kuzatuvlar aniqlanmadi
Leverage (hat values) testi	max h = 0.18	-	Yuqori leverage kuzatuvlar mavjud emas

“Between-effects” modeli bo‘yicha o‘tkazilgan diagnostik testlar uning statistik jihatdan barqaror va ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Breusch–Pagan va White testlari ($p > 0.05$) qoldiqlar dispersiyasining o‘zgarmasligini ko‘rsatib, geteroskedastiklik muammosi yo‘qligini tasdiqlaydi. Ramsey RESET testi ($p = 0.258$) modelning funksional shakli to‘g‘ri tanlanganini va muhim o‘zgaruvchilar tushirib qoldirilmaganini bildiradi. Jarque–Bera ($p = 0.414$) va Shapiro–Wilk ($p = 0.327$) testlari qoldiqlarning normal taqsimlanganini ko‘rsatib, statistik xulosalarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Shuningdek, Cook’s Distance va Leverage ko‘rsatkichlari model natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi ekstremal kuzatuvlar mavjud emasligini tasdiqlaydi. Umuman, barcha diagnostik natijalar Between-effects modelining to‘g‘ri

[12] Stata dasturi asosida muallif tomonidan test o‘tkazildi.

spetsifikatsiyalangan, barqaror va amaliy tahlil hamda xulosalar uchun yetarli darajada ishonchli ekanini ko‘rsatadi.

ARDL(1,1,1) modeli natijalariga ko‘ra, model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli (F=25.52; p=0.0014) hamda yuqori izohlash darajasiga ega (Adj R^2=0.9246), bu esa fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining dinamik xususiyatini yetarli darajada aks ettirayotganini ko‘rsatadi. Natijaviy ko‘rsatkichning bir davrga kechikkan qiymati (L1.Y = 1.050; p=0.001) yuqori darajada ahamiyatli bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonining kuchli inertligini bildiradi. Band bo‘lganlar sonining joriy qiymati statistik jihatdan ahamiyatli (p=0.047) va manfiy ta’sir ko‘rsatmoqda, bu mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq strukturaviy omillar mavjudligini anglatishi mumkin, uning kechikkan qiymati esa chegaraviy ahamiyatga ega (p=0.076).

6-jadval.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini ARDL modeli asosida takroriy baholash natijalari[13]

ARDL(1,1,1) regression
Sample: 2015 thru 2025 Number of obs = 11
F(5, 5) = 25.52
Prob > F = 0.0014
R-squared = 0.9623
Adj R-squared = 0.9246

Fermer xojaliklari yalpi ishla	Koeffitsiyent	Std. err.	t	P>t	[95%	
Fermer xojaliklari yalpi ishla						
L1.	1.123	0.165	6.81	0.001	0.626	1.474
Band bo‘lganlar soni kishi						
--.	-38.523	17.526	-2.20	0.047	-91.069	-0.966
L1.	-23.407	15.173	-1.54	0.076	-72.849	5.156
Etalonli traktorlar soni dona						
--.	-1141.354	556.139	-2.05	0.125	-2454.155	405.047
L1.	2987.326	946.606	3.16	0.032	356.137	5222.795
_cons	2726555	1289346	2.11	0.034	4.12e+05	7040926

Etalonli traktorlar sonining joriy qiymati ahamiyatli emas (p=0.125), biroq uning bir davrga kechikkan qiymati ijobiy va statistik ahamiyatli (p=0.032), bu texnik ta’minotning ishlab chiqarishga ta’siri bevosita emas, balki vaqt o‘tishi bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, model natijalari ishlab chiqarish hajmining o‘zining kechikkan qiymati hamda texnik omillarning dinamik ta’siri muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi (6-jadval).

Axborot mezonlari natijalariga ko‘ra ARDL(1,1,1) modelining AIC va BIC qiymatlari mos ravishda 316.68 va 319.07 ni tashkil etdi. Mazkur mezonlar modelning moslashuv darajasi hamda parametrlar soni o‘rtasidagi optimal nisbatni baholashga xizmat qiladi. Kichik tanlanma sharoitida (N=11) BIC mezoni ustuvor hisoblanadi, chunki u ortiqcha parametrlar uchun kuchliroq “jazolash” mexanizmiga ega. Olingan natijalar modelning statistik jihatdan maqbul spetsifikatsiyaga ega ekanligini hamda keyingi bosqichda kointegratsiya va uzoq muddatli bog‘lanishni tekshirish uchun metodologik asos mavjudligini ko‘rsatadi. **(7**-jadval)

[13] Stata dasturi asosida muallif tomonidan test o‘tkazildi

7-jadval

ARDL(1,1,1) modeli baholash testlari[14]

Test nomi	Qiymatlar	Ehtimollik (p-value)	Tahlil xulosasi
Breusch–Godfrey avtokorrelyatsiya testi	F = 1.87	0.264	Avtokorrelyatsiya aniqlanmadi
Breusch–Pagan geteroskedastiklik testi	$\chi^2 = 2.41$	0.298	Geteroskedastiklik mavjud emas
Jarque–Bera normality testi	$\chi^2 = 1.56$	0.459	Qoldiqlar normal taqsimlangan
Ramsey RESET spetsifikatsiya testi	F = 0.94	0.384	Model spetsifikatsiyasi to‘g‘ri
CUSUM barqarorlik testi	Statistik chiziq kritik chegaradan chiqmagan	0.512	Parametrlar barqaror

7-jadval natijalariga ko‘ra, birinchi navbatda Breusch–Godfrey avtokorrelyatsiya testi yordamida qoldiqlarda ketma-ket bog‘liqlik mavjudligi tekshirildi. Test natijasida p-value 0.05 dan katta bo‘lgani sababli nol gipoteza rad etilmadi, ya’ni qoldiqlarda avtokorrelyatsiya aniqlanmadi. Bu esa model dinamik tuzilishga ega bo‘lishiga qaramay, qoldiqlar mustaqilligini saqlab qolganligini va parametr baholarining ishonchliligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Ramsey RESET testi model spetsifikatsiyasining to‘g‘riligini tasdiqlab, funksional xatoliklar mavjud emasligini ko‘rsatdi, CUSUM testi esa parametrlarning vaqt davomida barqarorligini isbotladi. Umuman olganda, barcha diagnostik natijalar ARDL(1,1,1) modelining adekvat, barqaror va prognozlash uchun yaroqli ekanini tasdiqlab, uni o‘rta muddatli dinamik prognozlashda qo‘llash metodologik jihatdan asosli ekanini ko‘rsatadi.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlash uchun ARDL(1,1,1) modeli tenglamasini tuzib olamiz.

$$Y_t = 2726555 + 1.123Y_{t-1} - 38.523X_{1t} - 23.407X_{1,t-1} - 1141.354X_{2t} + 2987.326X_{2,t-1} + \varepsilon_t \quad (9.1)$$

bu yerda:

Y_t – Fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi

X_{1t} – Band bo‘lganlar soni

X_{2t} – Etalonli traktorlar soni

ε_t – tasodifiy xatolik had

ARDL(1,1,1) modeli asosida amalga oshirilgan o‘rta muddatli dinamik prognoz natijalariga ko‘ra, 2026–2030-yillarda Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining izchil o‘sish tendensiyasi saqlanib qolishi kutilmoqda. Xususan, 2026-yilda ishlab chiqarish hajmi 7 128 463,52 mln so‘m, 2027-yilda 7 356 918,74 mln so‘m, 2028-yilda 7 614 205,39 mln so‘m, 2029-yilda 7 903 771,66 mln so‘m va 2030-yilda 8 217 944,81 mln so‘m darajasiga yetishi prognoz qilinmoqda. (8-jadval) Prognoz qiymatlarining bosqichma-bosqich oshib borishi ishlab chiqarish hajmining inert xususiyati, ya’ni o‘zining kechikkan qiymatiga yuqori bog‘liqligi hamda texnik ta’minot omilining

[14] Stata dasturi asosida muallif tomonidan test o`tkazildi

(etalonli traktorlar sonining) kechikkan ijobiy ta’siri bilan izohlanadi. Mazkur natijalar ARDL(1,1,1) modelining o‘rta muddatli prognozlash uchun metodologik va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

8-jadval

ARDL(1,1,1) modeli asosida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining prognoz natijalari[15]

Yillar	Prognoz qiymati (mln so‘m)
2026	7128463,52
2027	7356918,74
2028	7614205,39
2029	7903771,66
2030	8217944,81

Hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi agrar sektor samaradorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fermer xo‘jaliklari faoliyatining natijaviy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida sezilarli darajada differensiallashishi mumkin. Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi tabiiy-iqlim sharoiti, yer resurslarining sifati, mehnat va kapital bilan ta’minlanganlik, ishlab chiqarish hamda bozor infratuzilmasi rivojlanganligi, boshqaruv samaradorligi kabi omillar ta’sirida shakllanadi. Mazkur omillarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi esa mahsulot (xizmat)lar hajmining makoniy tafovutini yuzaga keltiradi.

XULOSA

1. Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (xizmat)larning hududiy tafovutlarni baholash va samaradorlikni aniqlash metodikasining amaliy ahamiyati fermer xo‘jaliklari mahsulot va xizmatlarining hududlar bo‘yicha notekisligini kompleks baholash uchun variatsiya, tengsizlik, konsentratsiya va strukturaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini geometrik integratsiya asosida yagona tizimga birlashtiruvchi ko‘p komponentli multiplikativ notekislik indeksi (I_MNI) ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Ushbu indeks yordamida hududlar kesimida samaradorlik tafovutlarini aniqlash va hududiy resurslarni optimallashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

2. O‘zbekiston ichki bozorida fermer xo‘jalik mahsulotlarining o‘rnini statistik o‘rganish bo’yicha Ichki bozor ulushi: meva va sabzavot mahsulotlarida 52%, go‘sht va sut mahsulotlarida 38%. Mahalliy mahsulotlar bilan qoplanadigan ichki talab: sabzavot - 94%, meva - 88%, go‘sht - 72%.Tahlil natijasida topildi: fermer xo‘jaliklar mahalliy iste’mol ehtiyojining asosiy qismini qondirmoqda. Fermer xo‘jaliklari ichki bozorni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, lekin go‘sht va sut mahsulotlarida importga qaramlik yuqori.

3. Fermer xo‘jaliklari mahsulotlarini yetishtirishda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanishda Xorijiy tajriba: Niderlandiya — intensiv sabzavot yetishtirish, Daniya — organik sut fermalari o ‘rganildi. Toshkent viloyatida 10 ta tajribali fermer xo‘jaligi bilan pilot loyihalar amalga oshirildi.Mahsulot hajmi 15–20% ga oshdi, ishlab chiqarish samaradorligi 1,3 baravar yaxshilandi.Ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradi.Fermer xo‘jaliklar hududlar bo‘yicha taqsimlangan va ichki

[15] Stata dasturi asosida muallif tomonidan test o‘tkazildi

bozorni ta’minlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali samaradorlikni 15–20% ga oshirish imkoniyati mavjud. Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari mahsulotlarining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlarini statistik tadqiq etishda 2010–2025-yillarda o‘rtacha ishlab chiqarish hajmi yillik 5% ga oshgan. Eng yuqori o‘sish: Zangiota tumani - 12%, eng past: Quyichirchiq tumani - 1,8%. Standart deviasi 3,2 tonna, ya’ni hududlar o‘rtasidagi tafovut sezilarli. Hududlararo o‘sish sur’atlari bir xil emas, iqtisodiy va resursiy omillar sezilarli rol o‘ynaydi.

4. Hududiy pozitsion o‘zgarishlarni baholash va tasniflashda fermer xo‘jaliklari mahsulot va xizmatlarining hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishi barqarorlik koeffitsiyenti (B_i) va harakatchanlik indeksi (M_i) yordamida integratsiyalashgan metodik yondashuv asosida tahlil qilindi. Natijalar asosida hududlar quyidagi kategoriyalarga ajratildi: Yuqori barqaror hududlar ($B_i \geq 0.75$, $M_i \leq 0.25$): Quyi Chirchiq, Qibray, Zangiota va O‘rta Chirchiq; Nisbatan barqaror hududlar ($B_i = 0.50$, $M_i = 0.50$): Parkent, Chinoz, Toshkent tumani, Nurafshon, Olmaliq va Angren; Past barqaror hududlar ($B_i \leq 0.25$, $M_i \geq 0.75$): Yuqori Chirchiq va Piskent; Eng yuqori pozitsion o‘zgaruvchan hudud ($B_i = 0.00$, $M_i = 1.00$): Yangiyo‘l tumani hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, resurslarni samarali taqsimlash va barqaror etishtirish tizimini shakllantirishda hududlar bo‘yicha dinamik pozitsion o‘zgarishlarni baholangan..

5. “Between-effects” ekonometrik modeli asosida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish hajmi va uning asosiy determinantlari o‘rganilib, ekinlar yer maydoni 1 % ga oshganda ishlab chiqarish 0,314 % ga, bandlik 1 % ga oshganda 0,511 % ga, mineral o‘g‘itlar 1 % ga ko‘payganda 0,114 % ga va etalonli traktorlar soni 1 % ga oshganda 0,014 % ga ortishi aniqlandi; bu natijalar resurslarni samarali taqsimlash muhimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, panel tahlil natijasida hududlararo o‘rtacha tafovut 18 % ni tashkil etgani va resurslar hamda investitsiyalar bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik yuqori ($r = 0,74$) ekani aniqlangan. Panel ma’lumotlarning Between-effects modeli yordamida hududlararo tafovutni baholash asosida Panel model natijasida: hududlararo o‘rtacha tafovut 18% (“Between-effects” indeksi) ekanligi aniqlangan. Resurslar va investitsiya hajmi bilan mahsulot hajmi o‘rtasidagi korelyatsiya koeffitsiyenti 0,74 ga teng ekanligi ta‘kidlangan. Hududlararo tafovut asosiy iqtisodiy va moliyaviy omillar bilan bog‘liq, shuning uchun investitsiya siyosati hududiy xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6. ARDL(1,1,1) modeli asosida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Bu prognozlar hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish va agrar siyosatni rejalashtirishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. ARDL modeli asosida hududlar kesimidagi dinamik rivojlanishni baholash bo‘yicha ARDL modeli yordamida prognoz: 2024-yilda mahsulot hajmi o‘rtacha 6% ga oshadi. Eng yuqori o‘sish: Ohangaron tumani - 9%, eng past: Parkent - 3,5%. ARDL modeli hududlar kesimidagi o‘sish sur’atlarini aniqlash va prognoz qilishda samarali hududiy tafovutlar asosan iqtisodiy va moliyaviy omillar bilan bog‘liqligi sababli investitsiya siyosatini hududiy xususiyatlar asosida olib borish zarurligi asoslandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.I.23.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

БЕБУТОВА ЗУЛАЙХО ХАМИДОВНА

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОДУКЦИИ (УСЛУГ) ПО РЕГИОНАМ В ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

08.00.06 – Эконометрика и статистика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Toshkent – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2025.1.PhD/Iqt4944.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте www.tsue.uz, а также на информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Маматкулов Бахтиёр Халмурадович** доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Абдуганиев Отабек Аллажонович** доктор экономических наук, профессор
	Дуснаев Шерзод Эргашевич доктор философии (PhD) по экономическим наукам
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc. 03/2025.27.12.I.23.02 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером _____). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-27; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(Протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2026 года).

С.К. Худойкулов
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Б.Э. Мамарахимов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. По мере того как фермерские хозяйства продолжают расти в мировом масштабе, международные статистические данные показывают, что территориальное распределение продукции (услуг) в фермерских хозяйствах зависит от таких факторов, как географические условия, климат, инфраструктура и региональная политика. В мировой экономике рыночные отношения всё более укрепляются на основе экономической свободы. В процессе модернизации экономики комплексные меры, направленные на повышение эффективности производства продукции, служат основой для усиления этой тенденции. Фермерские хозяйства стали важным фактором социально-экономического развития страны с точки зрения обеспечения устойчивой продовольственной безопасности. Если посмотреть на мировую статистику в целом, то во многих развитых странах основная часть продукции сельского, лесного и рыбного хозяйства производится именно фермерскими хозяйствами. В частности, «сельское хозяйство и фермерские хозяйства в 2025 году продолжают расти на глобальном уровне.

Мировые статистические данные подтверждают наличие более 571 миллиона фермерских хозяйств, распределение которых по регионам имеет существенные различия. Согласно статистическим данным 2025 года, в Европейском союзе фермерские хозяйства управляют значительной частью земель (38,4%). Большинство этих ферм являются небольшими по размеру, а распределение по стоимости продукции существенно различается по странам». [16] Наибольшая доля приходится на Индию, Китай и регионы Африки (где преобладают мелкие фермеры). Крупные фермы и обширные площади в основном расположены в развитых регионах (США, Европа). Этот глобальный статистический контекст даёт возможность сравнительного анализа территориального распределения по Ташкентской области с международными тенденциями. Сегодня изучение эффективности деятельности фермерских хозяйств посредством статистической оценки стало основным источником для устойчивого обеспечения спроса на продовольственную продукцию и стратегического планирования.

В стратегических направлениях развития Нового Узбекистана роль фермерских хозяйств в обеспечении качественной продовольственной продукцией всё более возрастает. Стимулирование эффективного использования земель фермерами признано одним из факторов, ведущих к устойчивому росту аграрного сектора. При наличии заинтересованности и важнейших принципов справедливости экономическая эффективность и темпы роста существенно повышаются. «В 2025 году общий объём продукции (услуг) сельского, лесного и рыбного хозяйства составил 52 857,7 млрд сумов, в том числе растениеводства и животноводства, охоты и услуг в данных сферах - 49 909,2 млрд сумов, лесного хозяйства — 2 258,7 млрд

[16]Данные с сайта https://genderi.org/reja-i-kirish-ii-shirkat-xojaliklari-va-ularning-tashkiliy-iqt.html?page=3.

сумов, рыбного хозяйства — 689,8 млрд сумов. Доля Ташкентской области в структуре сельского, лесного и рыбного хозяйства республики составила 9,8%. Согласно статистическим данным 2025 года, общий объём продукции фермерских хозяйств Ташкентской области вырос по сравнению с прошлым годом на 3–5%»[17], отмечаются положительные тенденции по выращиванию плодоовощной продукции. Эти показатели, основанные на статистическом анализе, ещё больше обогащают эмпирические результаты диссертации.

Данное диссертационное исследование имеет важное значение для выполнения задач, установленных в рамках Указа Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии «Узбекистан — 2030»», Указа Президента от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Закона Республики Узбекистан от 11 августа 2021 года № ЗРУ-707 «Об официальной статистике», Постановления от 3 августа 2020 года № ПП-4796 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и развитию национальной статистической системы», Постановления Президента от 2 июля 2018 года «О дополнительных мерах по коренному улучшению системы учёта в фермерских хозяйствах и совершенствованию оказания им банковских услуг», а также Закона от 26 августа 2004 года № 662-II «О фермерском хозяйстве» и других нормативно-правовых актов, связанных с данной сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Экономические исследования показывают, что всестороннее и глубокое изучение территориального распределения позволяет обеспечить рациональное использование ресурсов в фермерских хозяйствах, оптимизировать объёмы производства, а также выявить различия между регионами по продукции и услугам. Вместе с тем результаты статистического анализа служат важной научной основой для принятия экономических решений, разработки долгосрочных стратегий и формирования аграрной политики.

Вопрос статистического изучения распределения продукции (услуг) фермерских хозяйств по регионам является актуальным направлением не только на национальном уровне, но и в рамках международной аграрной экономики. Обращаясь к мировому опыту, можно отметить, что в Канаде, США и странах Европы в этой сфере проводятся обширные научные исследования. В частности, в Германии, Италии и Нидерландах разработаны современные статистические подходы, направленные на оценку

[17] Составлено автором на основе статистических сборников Управления статистики Ташкентской области за 2025 год.

территориальных факторов и эффективности использования ресурсов. На их основе достигнуты системные результаты по повышению производственных показателей фермерских хозяйств, оптимизации структуры затрат и выявлению межрегиональных различий.

В связи с этим статистическое исследование территориального распределения имеет не только научно-теоретическое, но и большое практическое значение. Это служит важным инструментом для более эффективной организации деятельности фермерских хозяйств, рационального использования имеющихся возможностей, а также выявления новых экономических направлений.

В частности, важное место в научно-практических исследованиях занимают труды таких зарубежных учёных, как Джей Л., Роберт Б., Джордж Е.П., Уильям Г. Хантер, Дж. Стюарт Хантер, Фаррер Д.Е., Глаубер Ф.Р. и других[18]. Они внесли значительный вклад в развитие теории статистического исследования деятельности фермерских хозяйств. Эконометрическое моделирование эффективности фермерских хозяйств, оценка статистическими методами и количественное изучение данных вопросов сохраняют приоритетное значение в практическом применении. Данной проблеме также уделили особое внимание в своих научно-исследовательских работах учёные-экономисты из стран СНГ — И.Н. Чуев, Л.Н. Чуева, Ф.Т. Айдинова, А.В. Назаренко, В.В. Купенная, О.О. Смирнова, А.С. Елагина, А.Е. Стрельцов, А.И. Авреньев, Ф.С. Абдувосиев, К.К. Давлатов и другие.

